



№3/2024

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**ADPI**  
**Ilmiy xabarnomasi**

## MUNDARIJA

### PEDAGOGIKA

<b>Yulbarsova X.A.</b> Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish tuzilmasi va tavsifi .....	4
<b>Xushnazarova M.N.</b> Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy pedagogik amaliyotga tayyorlashda pedagogika fanining samarali usullaridan foydalanish .....	10
<b>Raxmedova M.A.</b> Mahmud az-Zamaxshariyning ma'naviy merosidan yoshlarni axloqiy tarbiyalashda foydalanish imkoniyatlari .....	13
<b>Ismoilov Y.Q.</b> Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning texnologik masalalari .....	17
<b>Iminova H.M.</b> Ta'lim tizimiga konsentrlangan ta'limni integratsiya qilishning zamonaviy pedagogik tendensiyalari .....	20
<b>Muladjanova G.A., Mullajonova M.D.</b> Oliy ta'lim talabalarining sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish kompetentligini takomillashtirish .....	25
<b>Wang Ping.</b> Exploration of ethnic music elements in chinese piano works .....	29
<b>Kadirov A.M., Ergasheva Sh.Q.</b> The role of fine arts in installing the values of human dignity in general education pupils .....	32
<b>Nadirxanova N.A.</b> Enhancing creative competence in students through the steam educational methodology: integrating visual arts and engineering graphics .....	38
<b>Axmedova D.X.</b> Interfaol usulda rag'batlantirishning o'quvchilar ta'lim-tarbiyasiga ijobiy ta'siri .....	44
<b>O'rinboyev M. I.</b> Fizika o'qitish amaliyotida metakognitiv faoliyatlarni takomillashtirish .....	48
<b>Burxonova M.M., Sirojiddinov B.A.</b> Amaliy mashq va masalalarning kontekstual asoslari hamda umumta'lim maktablarda qo'llanilishi bo'yicha pedagogik-metodik aspektlar .....	51
<b>To'raxonova B.T.</b> Bo'lajak pedagog-psixologlarni tarbiyaviy faoliyatini tashkil etishga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari .....	54
<b>O'smanova D.Z.</b> Zamonaviy dars jarayonida adabiy-nutqiy kompetensiyani shakllantirish, ilg'or pedagogik texnologiyalar orqali rivojlantirish .....	57
<b>Xudoyberganova M.A.</b> Talabalarga adabiyotni o'qitishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning samarali texnologiyalari .....	61
<b>Iminova D.N.</b> Innovativ loyihalar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish motivatsiyasini rivojlantirishning mazmuni .....	65
<b>Abdulmadjidova M.D.</b> Ilk o'spirinlik davrida mehnatga munosabatning shakllanishi .....	68
<b>Dushabayeva G.M.</b> Mustaqil ta'limda chizmachilik fanidan kompyuter dasturlarda foydalanishning ahamiyati .....	71
<b>Utanova V.M.</b> Diskurs tahlili: umumiy ta'rif, metodologiya va misol .....	75
<b>Qoraboyev J.B., Qoraboyeva N.N.</b> Ingliz va o'zbek tillarida frazeologik ma'no tuzilishi .....	78
<b>Umarov A.V.</b> Ilmiy-ma'rifiy media loyihalar – talabalarining mediasavodxonligi va axborot madaniyatini rivojlantiruvchi didaktik vosita sifatida .....	81
<b>Qodirova O.S.</b> Maktabgacha ta'lim yoshida bolalarning ta'lim faoliyatiga faol tashabbuskorlik munosabatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari .....	86
<b>Aslonov X.Sh.</b> Dasturlangan laboratoriya ishlarida yarimo'tkazgichlarning ta'qiqlangan zona kengligi tushunchasi .....	89
<b>Bakirov I.H.</b> Boks sport turida musobaqalarning o'tkazish turlari va musobaqa faoliyati .....	94
<b>Saidg'aniyev S.O.</b> Bolalar uchun sport gimnastikasi .....	98
<b>Tojiboyeva N.T.</b> Ta'lim muhitida o'zini-o'zi boshqarishda qiyin bo'lgan o'smirlarning hissiy qulayligining psixologik jihatlarini .....	100
<b>Dushabayev D.Sh.</b> Umum ta'lim maktablarda jismoniy tarbiya darslarida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish .....	103
<b>Abdullaev G'A.</b> The method of determination of aerobic and anaerobic treshhold by heart rate of athletes in the development of endurance qualities in athletics training (In the case of middle and long distance runners) .....	106
<b>Qurbonova F.M.</b> Talabalarining jamoada ishlash qobiliyatlarini kollobratsiya asosida shakllantirishning psixologik xususiyatlari .....	110
<b>Shobduraximova U.T.</b> Tavakallchilikka asoslangan virtual o'yinlar va ularning jamiyatga salbiy ta'siri .....	113
<b>Hasanova S.K.</b> Development of creative thinking of primary class students based on pirls' flows .....	115
<b>No'monova A.N.</b> O'zbekiston ta'lim tizimiga tasviriy san'atning rang tasvir yo'nalishini tadqiq etishning dolzarb masalalari .....	119
<b>Toshtemirov Q.Q.</b> Umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida milliy musiqa merosi "shashmaqom"ni o'rganishning ahamiyati .....	122
<b>Gofurjanova N.K.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro baholash dasturlaridagi ishtirokning ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni .....	126
<b>IJTIMOIY GUMANITAR FANLAR</b>	
<b>Yusupova S.N., Bakhronov B.</b> Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muamolari .....	129
<b>Olimova Z.I.</b> Abdulla Avloniyning Turkiston o'lkasidagi jadidchilik harakatiga qo'shgan hissasi .....	132
<b>Mirzayeva B.</b> Maishiy zo'ravonlikning ijtimoiy-falsafiy mohiyati .....	134

Ularning mustaqil o'rganish qobiliyatlari va o'z-o'zini baholash ko'nikmalari rivojlandi. Eksperimental guruhning o'quvchilari fizika faniga bo'lgan qiziqish darajasining oshishi va metakognitiv strategiyalarni qo'llash natijasida ta'lim jarayonida yuqori muvaffaqiyatlarga erishdilar. Statistik tahlil natijalari eksperimental guruhning nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori natijalarni ko'rsatdi. Bu natijalar metakognitiv strategiyalar va yangi metodik ishlanmalarning o'quvchilarning fizika o'qitishdagi muvaffaqiyatlarini oshirishda muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi.

Metakognitiv yondashuvlar o'quvchilarning o'rganish faoliyatlarini samarali boshqarishni o'rganishlariga va ularning fizika kabi murakkab fanlarni chuqurroq o'zlashtirishlariga imkon beradi. O'quvchilarning o'z bilimlarini tahlil qilish va muvofiqlashtirish qobiliyatlarini oshirish orqali ta'lim sifatini sezilarli darajada yaxshilash mumkin. Bu esa o'quvchilarning mustaqil fikrlash va o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari ko'rsatganidek, yangi metodik ishlanmalar va metakognitiv strategiyalarni qo'llash o'quvchilarning ta'lim sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi va ularning fizika fanida muvaffaqiyatlarini oshiradi. Shu sababli, umumiy ta'lim maktablarida fizika fanini o'qitishda yangi metodik ishlanmalar va metakognitiv yondashuvlarni keng qo'llash tavsiya etiladi.

#### Foydalangan adabiyotlar:

1. Flavell, J. H. (1979). "Metacognition and Cognitive Monitoring: A New Area of Cognitive-Developmental Inquiry." *American Psychologist*, 34(10), 906-911.
2. Whitebread, D., & Pino Pasternak, D. (2010). "Metacognition, self-regulation and meta-knowing." In P. Peterson, E. Baker, & B. McGaw (Eds.), *International encyclopedia of education* (3rd ed., pp. 204-210). Elsevier. (Darslik)
3. Nelson, T. O., & Narens, L. (1994). "Why investigate metacognition?" In J. Metcalfe & A. P. Shimamura (Eds.), *Metacognition: Knowing about knowing* (pp. 1-25). MIT Press.
4. Brown, A. L. (1987). "Metacognition, executive control, self-regulation, and other more mysterious mechanisms." In F. E. Weinert & R. H. Kluwe (Eds.), *Metacognition, motivation, and understanding* (pp. 65-116). Lawrence Erlbaum Associates.

UO'K. 373,573

#### AMALIY MASHQ VA MASALALARNING KONTEKSTUAL ASOSLARI HAMDA UMUMTA'LIM MAKTABLARDA QO'LLANILISHI BO'YICHA PEDAGOGIK –METODIK ASPEKTLAR

<https://zenodo.org/records/13292269>

**Burxonova Munajatxon Maxkamboyevna**  
**Sirojiddinov Behzod Arabdjonovich**  
*Andijon davlat pedagogika instituti*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada biologiya fanidan amaliy mashq va masalalar yechishning qulay va sodda usullarini ishlab chiqishning maktab ta'lim tizimidagi, o'quvchilarni bilim samaradorligi hamda o'qituvchining samarali va qulay ish faoliyatini tashkil etishdagi ahamiyati haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *biologiya, biologiya fanidan mashq, masalalar yechish, rivojlanish, kontekstual, aspekt, raqobat.*

**Аннотация.** *В данной статье говорится о важности разработки удобных и удобных методов практических занятий и решения задач по биологии в системе школьного образования, эффективности знаний учащихся, организации эффективной и удобной работы учителя.*

**Ключевые слова:** *биология, упражнения, проблемы, развитие, контекстный, аспект, конкуренция.*

**Abstract.** *This article talks about the importance of developing convenient and simple methods of practical exercises and solving problems in biology in the school education system, the effectiveness of*

*students' knowledge, and the organization of effective and convenient work of the teacher are also indicated.*

**Key words:** *biology, exercise, issues, facilitation, development, contextual, aspect, competition.*

Maktab ta'limida amaliy mashq va masalalar o'quvchilar bilimni boyitishda katta ahamiyatga ega. Amaliy mashq va masalalarning asosiy jihatlari:

- ma'lumotlarni yaxshi o'zlashtirish;
- muammoni yechish ko'nikmalarini shakllantirish;
- tanqidiy fikrlashni rivojlantirish;
- o'zini o'zi baholash;
- ilmiy qiziqish va ijodkorlik;
- hamkorlikda ishlash ko'nikmalari;

- ta'lim sifatini oshirish. Ushbu jihatlar maktab ta'limida amaliy mashqlar va masalalarning qanchalik muhim ekanini ko'rsatadi [1].

Amaliy mashq va masalalarning kontekstual asoslari ularni turli kontekstlarda qo'llashga moslashtirishni nazarda tutadi. Kontekstual asoslar amaliy mashqlar va masalalarni o'quvchilar uchun ahamiyatli, qiziqarli va foydali qilishga yordam beradi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Amaliy mashqlar va masalalarning kontekstual asoslari ta'lim jarayonida o'quvchilarning nazariy bilimlarni amalda qo'llay olishlarini ta'minlash maqsadida joriy qilinadi. Ushbu asoslar o'quv jarayonini hayotiy, qiziqarli va o'quvchilar uchun muhim qilib beradi. Quyida kontekstual asoslarning har biriga qisqacha to'xtalamiz:

**Hayotiy kontekst.** Amaliy mashqlar va masalalar hayotda uchraydigan real vaziyatlarga asoslangan bo'lishi kerak. Bu o'quvchilarga nazariy bilimlarni amalda qo'llash imkonini beradi va ularni kundalik hayotda uchraydigan muammolarni hal qilishga tayyorlaydi. Hayotiy kontekstdagi mashqlar va masalalar o'quvchilarga real hayotda uchraydigan muammolarni yechishga yordam beradi. Masalan, matematikada sotuvchi va xaridor o'rtasidagi savdo jarayonini o'rganish, biologiyada insonning sog'lom turmush tarziga doir masalalarni ko'rib chiqish mumkin.

**O'quvchilarning qiziqishlari.** Mashq va masalalar o'quvchilarning qiziqishlari va qiziqtiruvchi mavzularga mos bo'lishi kerak. Bu ularning o'quv jarayoniga qiziqishini - motivatsiyasini oshiradi. Bu jarayon o'quvchilarning shaxsiy qiziqishlariga mos mavzularni tanlash orqali amalga oshirilishi mumkin.

**O'quv standartlari.** Mashq va masalalar o'quv standartlari va dasturlariga mos bo'lishi kerak. Bu o'quvchilarning kerakli bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishini ta'minlaydi.

**Mahalliy madaniyat va muhit.** Amaliy mashqlar va masalalar mahalliy madaniyat va muhitga moslashgan bo'lishi kerak. Bu o'quvchilarga o'z jamiyatidagi muammolarni yaxshiroq tushunish va ularni hal qilishga yordam beradi.

**O'quvchilarning yoshi va tajribasi.** Mashq va masalalar o'quvchilarning yoshi va ularning oldingi bilimlari va tajribalariga mos kelishi kerak. Bu o'quv materialini yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi. Mashqlar o'quvchilarning bilim darajasi va tajribasiga mos mavzularni tanlashni talab qiladi. Masalan, boshlang'ich sinflarda - oson tushunarli va qiziqarli mashqlar; yuqori sinflarda - kompleks va chuqur tahlil talab qiladigan masalalar.

**Tarmoqlar orasidagi aloqalar.** Amaliy mashqlar va masalalar turli fanlar orasidagi aloqalarni o'rnatishga, integral bilim berishga yordam beradi. Masalan: Biologiya va kimyo fanlarida oziq-ovqat moddalari va ularning kimyoviy tarkibini qo'shib o'rganish mashg'ulotlari.

Mashq va masalalar turli ta'lim metodlari, masalan, individual, guruhlik va loyihaviy ishlashga mos bo'lishi kerak. Bu o'quvchilarning turli o'quv uslublarini rivojlantirishga, individual, guruhda ishlash yoki loyihaviy faoliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Kontekstual asoslar amaliy mashq va masalalarning real hayotga mos va o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lishiga yordam beradi. Bu esa o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi [2].

Umumta'lim maktablarda amaliy mashqlar va masalalarni qo'llash bo'yicha pedagogik va metodik aspektlar o'quv jarayonini samarali tashkil etish va o'quvchilarning bilimni mustahkamlashga qaratilgan. Pedagogik aspektlar - motivlashtirish, amaliy mashqlar va masalalar o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi. Ular o'quvchilarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishlarini ta'minlaydi [3].

To'g'ri tanlangan mashqlar va masalalar o'quv dasturi va standartlariga muvofiq bo'lgan, hayotiy va qiziqarli mashqlar va masalalardir. Har bir fan bo'yicha amaliy mashqlar va masalalarning turli darajadagi murakkablikdagi variantlarini tayyorlash zarur. Strukturalangan o'quv materiallari aniq va tushunarli bo'lishi, topshiriqlarning izchil va mantiqiy ravishda taqdim etilishiga e'tibor qaratish kerak.

Amaliy mashqlarning turli usullari mavjud bo'lib ular:

- Interaktiv darslar;
- laboratoriya mashg'ulotlari;
- loyihalar va keys-stadi usullari.

Turli usullarni moslashtirish orqali o'quv jarayonini boyitish mumkin. Umumta'lim maktablarda amaliy mashqlar va masalalarning qo'llanilishi o'quvchilarning bilim olish jarayonini samarali va qiziqarli qilib beradi, ularning mustaqil fikrlash va muammo yechish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi [4].

Dars samaradorligini oshirish uchun ta'lim sohasida o'zaro sog'lom raqobatni vujudga keltirish va bu orqali ijodiy ishlash tizimni yaratish kerak.

O'qituvchi amaliy mashqlar va masalalarning qo'llashi jarayonida bilim saviyasiga, mavzuni tushintirib bera olish qobiliyatiga, pedagogik mahoratiga alohida e'tibor qaratishi zarur, fikrlarini aniq faktlar bilan ifodalashi kerak.

Biologiya fanidan amaliy mashq va masalalar yechishda mashg'ulotlarni guruhlarga ajratilgan holda olib borishga e'tibor qaratish zarur. Kichik guruhlarning o'quvchilarning bilim saviyasiga qarab ajratish zarur va ularga imkoniyatiga qarab mashq va masala berish kerak. Jumladan, boshlang'ich sinfida 8-12ta o'quvchidan iborat guruhlarda o'quvchilari yaxshi fikrlaydi va bilishga intiladi.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni 5-, 9-sinflarda o'zlashtirish darajasiga qarab "A", "B", "V" sinflarga ajratib olish tizimini shakllantirish kerak. Bunda "A"-sinfga 20tadan oshmagan eng iqtidorli o'quvchilar qamrab olinsa, "B"-sinfga o'rtacha o'zlashtirish qobiliyatiga ega bo'lgan o'quvchilar, "S"-sinfga o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar qamrab olinsa va o'quvchilarning o'zlashtirishini hisobga olgan holda darsni tashkil etarishi maqsadga muvofiq. Bunday bo'linish ota-onalarda ham qiziqish uyg'otib, farzandining o'qishiga bo'lgan e'tiborini kuchaytirar edi.

Bunday bo'linish o'qituvchi va o'quvchiga darsda qulaylik tug'dirib, yaxshi pedagogik va psixologik muhitni yaratishga, dars samaradorligini oshirishga katta yordam beradi. Bunday tabaqalashtirish "Differensiyalashgan sinf tizimi" deyilib, dunyoning ko'plab rivojlangan davlatlarida sinovdan o'tgan va o'zining ijobiy samarasini bergan. Hozirda yana ko'plab davlatlar ushbu tizimga o'tmoqdalar. Qolaversa bu tizim o'quvchilarning maktab to'g'risidagi

tasavvurini, maktabga bo'lgan munosabatini, tushunchasini tubdan o'zgartirib, maktabga nisbatan hurmat va e'tibor uyg'otishimiz kerak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dyui, Jon. Ta'lim nazariyasi. (Theories of Education). Blekvell Publishing, 2008. 47-b.
2. Vigotskiy, Lev. Tafakkur va til. (Thought and Language). Nashr: MIT Press, 1986. 83-b.
3. Jabborov R.F. Muammoli ta'lim va uning samaradorligi. Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2015. 64-b.
4. Sharipova T.N. Kontekstual ta'lim: nazariya va amaliy yondoshuvlar. – T.: Fan va texnologiyalar, 2017. 29-b.

UO'K: 316:37.018.11-053.6

#### BO'LAJAK PEDAGOG-PSIXOLOGLARNI TARBIYAVIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISHGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

<https://zenodo.org/records/13292273>

To'raxonova Barno Tursunboy qizi  
Andijon davlat universiteti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bo'lajak pedagog-psixologlarning tarbiyaviy faoliyatidagi pedagogik shart-sharoitlar, imkoniyatlari hamda kasbiy-pedagogik faoliyatning shakllanganlik darajalari, pedagogik ta'lim o'ziga xos strukturasi, kasbiy-pedagogik faoliyatni shakllanganligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, struktura, tarbiya, imkoniyatlar, qadryatlar, muvaffaqiyat, ijodkor, talaba, pedagog.

**Аннотация.** В данной статье описаны педагогические условия, возможности и уровни становления профессионально-педагогической деятельности в образовательной деятельности будущих педагогов-психологов, своеобразная структура педагогического образования, формирование профессионально-педагогической деятельности.

**Ключевые слова:** Образование, структура, воспитание, возможности, ценности, успех, творец, ученик, учитель.

**Abstract.** Pedagogical conditions, possibilities, and levels of formation of professional-pedagogical activity, the unique structure of pedagogical education, the formation of professional-pedagogical activity are covered in this article.

**Key words:** Education, structure, upbringing, opportunities, values, success, creator, student, teacher.

Iqtisodiy qadriyatlar va ular bilan birga ijtimoiy qadriyatlar o'zgarishi oliy pedagogik ta'lim tizimini isloh qilish va yangilashni taqozo etdi. Ta'lim tizimining asosiy, belgilovchi maqsadi – mustaqil hayotda o'zini to'liq ko'rsata oladigan o'quvchi shaxsini rivojlantirishdir. Boy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, rivojlangan, tashabbuskor, faol, uddaburon shaxsgina beqarorlik va ko'p bosqichli bozor tuzumi sharoitida raqobatga bardosh bera oladi. Bu maqsadga muvaffaqiyatli erishish pedagogika bilim yurtidan o'qituvchi shaxsini rivojlantirishni taqozo etadi. Tarbiya maqsadi sifatida komplekslardan xoli, ijodkor, faol, tashabbuskor, uddaburon shaxsni rivojlantirish haqida gap ketganda, bu jarayonda o'qituvchining shaxsiy ishtirokiga tayanmasdan vaziyatni tasavvur etib bo'lmaydi.

Pedagogik ta'lim murakkab ochiq tizim sifatida ikkita asosiy omil: pedagogika fani yutuqlari va o'quv amaliyotining ehtiyojlari ta'sirida rivojlanadi. Tanlangan omillarning murakkab o'zaro munosabatlarini, ularning o'zaro kirib borishini alohida ta'kidlash kerak. Amaliy faoliyatda yuzaga keladigan innovatsion pedagogik jarayonlar yangi pedagogik g'oyalarning tug'ilishini keltirib chiqaradi. Shu munosabat bilan pedagogik nazariyaning asosiy funksiyalaridan biri metodologik funktsiya bo'lib, u ta'limning "amaliy falsafasi"ni anglash funktsiyasidir [1].

